

2 – SON / 2022 - YIL / 15 - OKTYABR

**TA'LIM JARAYONINI BOSHQARUVIDA AXBOROT TIZIMLARIDAN
FOYDALANISH**

S.Eshqobilov

A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti katta o'qituvchisi

Ta'lism jarayonini boshqarishda axborot texnologiyalarini qo'llash uning samaradorligi va ahamiyatliligi bilan bugungi kunda dolzarbligini ko'rishimiz mumkin.

Bugungi kunda boshqaruvga axborot texnologiyalarini joriy qilish, takomillashtirish masalalariga katta ahamiyat bepilmoqda. Boshqarishni axborot tizimlari orqali amalga oshirish – boshqarishning usullarini takomillashtirish, puxta rejalashtirish, tashabbuskorlikning rivojlanishi, ma'lumotlarni to'plash va qayta ishslash jarayoni samaradorligining oshishi, ish sifatining ortishi va boshqalarda namoyon bo'ladi.

Axborot texnologiyalarini ta'lism muassasasini boshqaruvida qo'llashning asosiy maqsadi maktab boshqaruv faoliyati samaradorligini yaxshilash hisoblanadi. Mana shu vazifalarni amalga oshirish maqsadida hozirgi paytda ko'plab Ta'lism muassasasini boshqarishning axborot tizimlari ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonunida axborot tizimiga axborotni to'plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish hamda undan foydalanish imkonini beradigan, tashkiliy jihatdan tartibga solingan jami axborot resurslari, texnologiyalar va aloqa vositalari deb ta'rif berib o'tilgan. Ta'lism jarayonini boshqarishda qo'llanilayotgan axborot tizimlari ham axborotlar bilan ishslash amallari, resurslarni boshqarish, rejalashtirish, nazorat qilish vazifalarini bajaradi.

Xalq ta'limi tizimida erp.maktab.uz – Xalq ta'limi tizimini boshqarishning yagona dasturiy majmuasi tizimi mavjud bo'lib, bu tizim o'z ichiga ko'plab vazifalarni, jumladan Xalq ta'limi tizimi xodimlari va o'quvchilar haqida ma'lumotlar bazasi, maktab pasporti, o'quvchilar kunlik davomati, statistik ma'lumotlar, hisobotlarni shakllantirish imkoniyatlari mavjud. Shunga qaramasdan ko'plab umumta'lim maktab rahbarlarining AKT kompetentligining yetarli darajada emasligi, bu tizimdan samarali foydalanishi, ma'lumotlar ba'zasini yangilash, to'liqligini ta'minlash masalalarida muammolar mavjudligini ko'rishimiz mumkin.

Axborot tizimlari ta'lism muassasasida ishtirok etuvchilar ma'lumotlarini saqlash, yig'ish, qayta ishslash, o'zgartirish, uzatish, qabul qilish va ma'lumotlar asosida monitoring ishlarini olib borish, hisobotlarni tayyorlash vazifalarini bajaradi. Shu bilan birga rahbar va pedagog xodimlari ish faoliyatini rejalashtirishda, boshqarishda va baholashda zarur ma'lumot bilan ta'minlab beradi.

Axborot tizimi orqali ta'lism muassasasini an'anaviy boshqaruvdan noan'anaviy boshquruv usuliga o'tish imkoniyatlarini yaratib beradi.

Axborot tizimi axborot texnologiyalari yordamida qarorlar chiqarish, kadrlar bilan ishslash, aloqalarni o'rnatish, ma'suliyatlilik, rejalashtirish va boshqarish vazifalari amalga oshiriladi. Bundan tashqari tizimlar maktab maqsadlarini aniqlashda muvaffaqiyatlarga erishish maqsadida, strategik rejalashtirishni shakllantirishda, resurslarni shakllantirishda, xodimlarni baholashda maktab rahbariyatiga ko'makchi bo'lib xizmat qiladi.

Kompyuter texnologiyasi maktabda o'quv jarayoni, fanlarni o'rganishda va boshqarishdagi muhim o'rin egallaydi va bularni yaratish imkoniyatiga ega.

Ta'lif muassasasi rahbari ko'p vaqtini maktab vazifalarni bajarishda jumladan xodimlarni taqsimlash, resurslarni boshqarish, dars jadvallarini tashkil qilish va o'quv jarayonini nazorat qilish, monitoring, hisobotlar tayyorlashga sarflaydi.

Bu vazifalarni Axborot tizimlari yordamida bajarish orqali ta'lif muassasasini samarali boshqarishga erishiladi.

Axborot tizimlari vazifalarni markazlashtirilgan tarzda aniq vaqtida bajarishga va o'zaro aloqalarni o'rnatishga yordam beradi.

Har bir maktab direktori yoki pedagog internet tarmog'ida muvaffaqiyatli internet xizmatlaridan foydalinishda identifikasiya tizimi (id.egov.uz) da akkaunti bo'lishi va shu bilan onlayn platforma, axborot tizimlari, o'rgatuvchi tizimlarga kirish imkonini beradigan akkauntlar (google akkaunt, Microsoft va b.) ga ega bo'lishi lozim.

OneID – Yagona identifikatsiya tizimi orqali axborot va interaktiv davlat xizmatlari (my.gov.uz), Yagona milliy mehnat tizimi (my.mehnat.uz), Normativ-huquqiy hujjatlar muhokamalari portali, axborot tizimlari va Xalq ta'lifi tizimidagi elektron dasturiy vositalardan foydalanish imkoniyati mavjud.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kunda axborot texnologiyalarining rivojlanib borishi, uning imkoniyatlaridan foydalanish maqsadida barcha sohalarga joriy qilinmoqda, shu jumladan ta'lif tizimida ham. Boshqaruvda axborot tizimlarini joriy qilish orqali ta'lif muassasalari xodimlari o'zlarining AKT savodxonligini oshirishda, o'z ustida ishslashda, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish haqida bilimlarini egallashiga muhim turtki bo'ladi. Shu bilan bir qatorda Ta'lif muassasasini boshqarishda axborot tizimlarini qo'llash orqali o'quvchi yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda maktab, ota-onalar hamkorligida amalga oshirishga yordam beradi.